

Yangiyo'l "Biokimyo" AJ 2023 yil davomida monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyatining samaradorligini baholash yo'nalishlari va indikator ko'rsatkichlari.

T/r	Indikatorlar	Izoh
<b>I. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi</b>		
1.1	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati tartibini belgilovchi ichki nizom ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy etilgan, "Biokimyo" AJ aksiyadorlarining 2021 yil 25 iyundagi umumiy Yig'ilish qarori bilan tasdiqlandi va O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va istemolchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining Toshkent viloyati xududiy boshqarmasiga 2023 yil 21 iyuldagi 03-25-301/06-sonli xat orqali taqdim etilgan.
1.2	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Mazkur "Yo'l xarita" 2023 yilga mo'ljallangan bo'lib ishlab chiqilgan; "Biokimyo" AJ boshqaruv raisi tomonidan 2023 yil 12 yanvarda tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va istemolchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining Toshkent viloyati xududiy boshqarmasiga 2023 yil 21 iyuldagi 03-25-301/06-sonli xat orqali taqdim etilgan.
1.3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste'molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	2022 yilda "Biokimyo" AJda raqobat to'g'risidagi qonunchiligi xujjatlarini buzilish ehtimolini baholash maqsadida, jamiyatning rasmiy veb-saytini virtual qabulxonasida "Raqobat cheklanishi to'g'risida habar ber" interaktiv tugmachasi yaratilgan.
1.4	Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot sifatli va o'z vaqtida taqdim etilganligi va rasmiy veb-saytga joylashtirilganligi.	Mazkur hisobot har yili 25 dekabr qadar "Biokimyo" AJ rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi. Monopoliyaga qarshi organga 2022 yil natijalari bo'yicha 29 dekabrda 07-25-450/06-sonli xat bilan taqdim etilgan.
<b>II. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilishi xatarlarini aniqlash, baholash va ularning oldini olish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilganligi</b>		
2.1	Faoliyatga tegishli materiallarni o'rganish natijasida (shu jumladan, raqobatni yoki iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlar xatlovdan o'tkazishda) aniqlangan qonunbuzilish holatlari soni va sohasi.	2023 yil davomida "Biokimyo" AJda o'tkazilgan o'rganishlar va tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi buzilishi aniqlanmadi.
2.2	Aniqlangan qonunbuzilishlar va kamchiliklarni bartaraf etish hamda kelgusida yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'rilgan choralar.	2023 yil davomida "Biokimyo" AJda qonunbuzilishlar va kamchiliklar aniqlanmadi. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini oldini olish maqsadida jamiyatda quyidagi me'yoriy xujjatlar ishlab chiqildi: 1. 2023 yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"; 2. "Kirib kelgan xomashyo, materiallarni qabul qilish komissiyasini tuzish haqida" 45-sonli buyrug'i; 3. "Tuzilgan shartnomalarni nazorat qilish komissiyasini tayinlash to'g'risida" 46-sonli buyrug'i; 4. "Mahsus ahborot portali orqali tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish bo'yicha doimiy xarid komissiyasi tayinlanishi bo'yicha" 185-sonli buyrug'i.
2.3	Faoliyat davomida oldi olingan qonunbuzilish holatlari soni va sohasi.	"Biokimyo" AJning 2023 yilda oldi olingan qonunbuzilish holatlari aniqlanmadi.

2.4	Tashkilot faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillar aniqlanganligi va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilganligi.	"Biokimyo" AJ 2023 yilda raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillar keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillar aniqlanmadi.
2.5	Qabul qilinadigan ichki hujjatlarning loyihalari o'rganilganligi, bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	Jamiyatda raqobat to'g'risidagi qabul qilinadigan "ichki hujjatlarning" qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalari o'rganib chiqildi, kamchiliklar aniqlanmadi.
2.6	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, kuyidagi idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan va "Biokimyo" AJ Kuzatuv kengashining 2023 yil "23" avgustdagi 2-son yig'ilish qarori bilan tasdiqlangan: 1. "Ahloq kodeksi"; 2. "Korrupsiyaga qarshi kurashishi siyosati"; 3. "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati"; 4. "Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati".
2.7	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan OAB va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan OAB va ijtimoiy tarmoqlarga chiqishlar hisobot yil davomida zaruriyati bo'lmadi.
<b>III. Davlat organlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rahbarlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olish bo'yicha amalga oshirgan ishlari</b>		
3.1	Tashkilotda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida vakolatli shaxs (bo'linma) tayinlanganligi, uning zarur resurslar va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta'minlanganligi.	Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida, "Biokimyo" AJ boshqaruv raisining 2022 yil 27 may oyidagi 32/IU-sonli buyrug'i bilan, Ungarbaeva Zulfiya Vaxabovna - "Komplaens" xizmati boshlig'i bo'lib taynlangan. Ish jarayonida zarur resurslar va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta'minlangan.
3.2	Tashkilot rahbarlari tomonidan hay'at yig'ilishlari va boshqa yig'ilishlarda tashkilot faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash masalasi ko'rib chiqilganligi.	"Biokimyo" AJ kuzatuv kengashi yig'ilishlarida korporativ xaridlar holati uni qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirganligi to'g'risidagi hisobotlar bo'yicha umumiy yig'ilishlar 2023 yil xar choragida o'tkazilgan va xisobotlar ko'rib chiqilgan: 1. 2023 yil 1 aprel kuni "Birinchi chorak yakunlari bo'yicha"; 2. 2023 yil 1 iyul kuni "Birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha"; 3. 2023 yil 1 oktyabr kuni "To'qqiz oylik yakunlari bo'yicha" Jamiyatda xaridlar jarayoni shaffofligi va asosligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 21 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risidagi" O'RQ-684-sonli Qonuniga asosan shartnomalar tuzilishi davlat xaridlari mahsus ahhobot portali <b>Xt-xarid.uz</b> , <b>uzex.uz</b> va <b>coopertion.uz</b> portali yordamida amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan.
<b>IV. Xodimlarning raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablari buzilishining oldini olishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi</b>		
4.1	Hisobot yilida xodimlarning raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.	2003 yil fevral oyida Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida "Korporativ boshqaruvning zamonaviy amaliyoti va tamoyillari" mavzusida 40 soatlik mahsus o'quv dasturi asosida ishlab chiqarish bo'yicha direktor Kasimov Djamshid Rustamovich o'qitildi.
4.2	Tashkilot xodimlarini raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari, qo'llanmalar mavjudligi.	"Biokimyo" AJ xodimlarini raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o'quv dasturlari bo'yicha o'qitilishi 2024 yilga rejalashtirilgan.

Komplaens xizmati boshlig'i

Z. Ungarbayeva

